

Bosh ilmiy-metodik
markaz

2021

O‘quv-uslubiy majmua

**MOLIYAVIY O‘Z-O‘ZINI TA’MINLASH
JARAYONIDA TA’LIM MUASSASALARI
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA’LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH
BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

“Ta’lim tizimi menejmenti” yo‘nalishi uchun

**“MOLIYAVIY O‘Z-O‘ZINI TA‘MINLASH JARAYONIDA
TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI TASHKIL
ETISH VA BOSHQARISH”**

moduli bo‘yicha

O‘QUV-USLUBIYMAJMUА

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ta’lim tizimi menejmenti” qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishi o‘quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **O.Sattarov** – iqtisod fanlari doktori, professor.v.b

Taqrizchi: **S.Mexmonov** – iqtisod fanlari doktori, professor

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy- metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.
(2022 yil “24” dekkardagi 6/4-sonli bayonnomasi).

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.....	65
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	245
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	55
V. GLOSSARIY	66
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	69

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”, 2019 yil 11 iyuldagagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloq qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5763-sonli Farmoni, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, shuningdek, 2019 yil 11 iyuldagagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4391-sonli Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabr «Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida»gi 967-sonli Qarorlarida oliy ta’lim muassasalarini moliyaviy o‘zini-o‘zi ta’minlash masalalarining me’yoriy-huquqiy asoslari bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur me’yoriy-huquqiy hujjatlarda oliy ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich moliyaviy mustaqillik berish, uni tashkil etish va amalda qo‘llash mexanizmlari, moliyaviy mustaqillik berishning o‘ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2021 yilni mamlakatimizda **“Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”** deb e’lon qildi.

Shuningdek, Murojaatnomada **2021 yilda yurtimizdagi 30 ta yetakchi oliygohga o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi** berilishi alohida ta’kidlandi.

Mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi

tinglovchilariga oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berishning ahamiyati, uning o‘ziga xos xususiyatlari va afzalliklari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining pul mablag‘larini mustaqil tasarruf etish va foydalanish tartibini o‘rganishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berishning ahamiyati, uning o‘ziga xos xususiyatlari va afzalliklarini o‘rganish;
- xorijiy davlatlarning oliy ta’lim muassasalari misolida moliyaviy mustaqilligini tahlil etish;
- oliy ta’lim muassasalari moliyaviy mablag‘larini rejali va mustaqil moliyalashtirish modellarini solishtirma tahlil qilish;
- moliyaviy o‘z-o‘zini ta’minlash jarayonida ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishni tahlil etish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Moliyaviy o‘zini-o‘zi ta’minlash jarayonida ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- ta’lim muassasasini o‘z-o‘zini moliyalashtirish tizimiga o‘tish yo‘llari;
- moliyaviy mustaqillik berish asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari;
- talabalar kontingenti, ta’lim yo‘nalishlarini tashkil etish, professor-o‘qituvchilarni moddiy rag‘batlantirish masalalarini mustaqil boshqarish;
- ta’lim sohasini boshqarishning huquqiy asoslari, ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- moliyaviy o‘z-o‘zini ta’minlash jarayonida ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish haqidagi **bilimlarga ega bo‘lishi**;
- moliyaviy mustaqillik berish asosida oliy ta’lim jarayonlarini tashkil etish;
- moliyaviy o‘z-o‘zini ta’minlash jarayonida talabalarning to‘lov kontrakt summalarini mustaqil belgilash;
- ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash;
- moliyaviy ta’minoti manbaalari bo‘yicha daromadlar va harajatlarni rejalashtirish **ko‘nikma va malakalarini egallashi**;

- ta’lim muassasalarini o‘z-o‘zini moliyalashtirish tizimida o‘quv, uslubiy, ilmiy, ma’naviy, ma’rifiy va tashkiliy faoliyatini moliyaviy ta’minotini tashkil etish;
- oliy ta’lim muassasasining mablag‘larini to‘g‘ri rejalashtirish, ulardan maqsadli va oqilona foydalanish;
- moliyaviy o‘z-o‘zini ta’minlash jarayonida ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo‘yicha **kompetensiyalarini egallashlari lozim.**

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Moliyaviy o‘zini-o‘zi ta’minlash jarayonida ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blis-so‘rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruqlar bilan ishslash va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyiligi

“Moliyaviy o‘z-o‘zini ta’minlash jarayonida ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Raqamli universitet” modeli va oliy ta’lim jarayonini boshqarishning axborot tizimlari”, “Ta’lim menejerining innovatsion kompetentligi” va boshqa shu kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta’limdagи o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar moliyaviy o‘zini-o‘zi ta’minlash jarayonida ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishga oid normativ-huquqiy asoslarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot
1.	<p>Ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minoti tarkibi va ularni boshqarish.</p> <p>Ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotining ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni. Ta’lim muassasasining moliyaviy ta’minotining qonunchilik asoslari. Ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minoti manbaalari va ularni boshqarishning amaldagi tizimi. Ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini boshqarishning xorij tajribalari.</p>	2	2	
2.	<p>Ta’lim muassasalarida o‘z-o‘zini moliyalashtirish tizimini tashkil etish, moliyaviy mustaqillik.</p> <p>Ta’lim muassasalari o‘z-o‘zini moliyalashtirish tizimiga o‘tishning zaruriyati, ahamiyati, yo‘llari. Ta’lim muassasasida ilmiy-innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish. Ta’lim muassasasi investitsiyalarni jalb etishning asosiy yo‘nalishlari. Ta’lim muassasalarini moliyaviy mustaqilligi sharoitida o‘quv, uslubiy, ilmiy, ma’naviy, ma’rifiy va tashkiliy faoliyatini moliyaviy ta’minotini tashkil etish.</p>	2	2	
3.	<p>Moliyaviy o‘z-o‘zini ta’minlash jarayonida ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish amaliyoti.</p> <p>Moliyaviy o‘z-o‘zini ta’minlash jarayonining asosiy komponentlari asosida OTM moliyaviy mustaqilligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyati. Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘z-o‘zini moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash amaliyoti.</p>	4		4
4.	Moliyaviy o‘zini-o‘zi ta’minlash orqali oliy ta’lim	4		4

	muassasalari faoliyatini rivojlantirish. Oliy ta’lim muassasalarining ta’lim xizmatlari eksporti va qo‘sishimcha xizmatlar ko‘rsatishga doir faoliyatini rivojlantirish. Moliyaviy mustaqillik berilayotgan OTMda kuzatuv kengashlarini tashkil etishning ahamiyati.			
	Jami:	12	4	8

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: TA’LIM MUASSASALARI MOLIYAVIY TA’MINOTI TARKIBI VA ULARNI BOSHQARISH. (2 soat)

Ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotining ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rnini. Ta’lim muassasasining moliyaviy ta’minotining qonunchilik asoslari. Ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minoti manbaalari va ularni boshqarishning amaldagi tizimi. Ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini boshqarishning xorij tajribalari.

2-MAVZU: TA’LIM MUASSASALARIDA O‘Z-O‘ZINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TASHKIL ETISH, MOLIYAVIY MUSTAQILLIK. (2 soat)

Ta’lim muassasalari o‘z-o‘zini moliyalashtirish tizimiga o‘tishning zaruriyati, ahamiyati, yo‘llari. Ta’lim muassasasida ilmiy-innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish. Ta’lim muassasasi investitsiyalarni jalg etishning asosiy yo‘nalishlari. Ta’lim muassasalarini moliyaviy mustaqilligi sharoitida o‘quv, uslubiy, ilmiy, ma’naviy, ma’rifiy va tashkiliy faoliyatini moliyaviy ta’minotini tashkil etish.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: MOLIYAVIY O‘Z-O‘ZINI TA’MINLASH JARAYONIDA TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI. (4 soat)

Moliyaviy o‘z-o‘zini ta’minlash jarayonining asosiy komponentlari asosida OTM moliyaviy mustaqilligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyati. Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘z-o‘zini moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash amaliyoti.

2- MAVZU: MOLIYAVIY O‘ZINI-O‘ZI TA’MINLASH ORQALI OLIY TA’LIM MUASSASALARINI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH. (4 soat)

Oliy ta’lim muassasalarining ta’lim xizmatlari eksporti va qo’shimcha xizmatlar ko’rsatishga doir faoliyatini rivojlantirish. Moliyaviy mustaqillik berilayotgan OTMda kuzatuv kengashlarini tashkil etishning ahamiyati.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (analitik ma’lumotlar asosida moliyaviy o‘zini-o‘zi ta’minalash yuzasidan taklif berish qobiliyatini rivojlantirish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (analitik ma’lumotlar asosida moliyaviy o‘zini-o‘zi ta’minalash yuzasidan muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyul “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5763-sonli Farmoni
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyul “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4391-sonli Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabr «Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida»gi 967-sonli Qaror

III. Maxsus adabiyotlar:

16. Oliy ta’limning me’yoriy - huquqiy xujjatlari to‘plami. -T., 2013.
17. Rasprostranenie Bolonskogo protsessa: o deklaratsii k vnedreniyu na praktike. V 3-x chastyax. Chast 2. Tendensii razvitiya Bolonskogo protsessa, yego instrumenty i orыт vnedreniya / R.R. Agishev, I.V. Anisimova, Sh.M. Valitov, D.A. Gopkalo, V.G. Kryukov, A.Ye. Pushkina, L.A. Simonova, A.P. Snegurenko. Pod red. prof. R.R. Agisheva. - Kazan, KGTU im. A.N. Tupoleva, 2008. - 118 s.
18. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.
19. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.

IV. Internet saytlar:

20. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
21. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
22. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
23. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET.
24. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

“KWHL” metodi:

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o‘rganib oldim?.

“KWHL” metodi	
1. Nimalarni bilaman: -	2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	4. Nimalarni bilib oldim:

“W1H” metodi:


Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlataladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	

What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi:

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



SWOT -тҳахлили

Strengths	Weakness
Opportunities	Threats

- **S-кучли томони**
- **W- кучсиз томони**
- **O- имконият**
- **T- тўсиқлар**

Keys-stadi” metodi:

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishslash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy	✓ individual va guruhda ishslash;

muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishslash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi.

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.



Test

Muammoli vaziyat

**Tushuncha tahlili
(simptom)**

Amaliy vazifa

“SCAMPER” metodi:

Metodning maqsadi: mazkur metod muammolarni bartaraf etish bo‘yicha yangi innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. SCAMPER “tez yugurish” degan ma’noni anglatadi. SCAMPER tushunchasi kengaytmasi (7 ta)ning har biridan 7 qatordan va 3 ustundan iborat jadval yaratish talab etiladi.

SCAMPER



Ta’lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish.

SCAMPER savollari	SCAMPER savollari (yangi g‘oyani ishlab chiqish)	Ta’lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish
S	Nima bilan almashtirish mumkin?	
C	Nima bilan birlashtirish mumkin?	
A	Nimaga moslashtirish kerak?	
M	Qanday yaxshilash mumkin?	
P	Nimalarni o‘zgartirish mumkin? (shakl, tur, belgi, rang va	

	boshqalar)	
E	Yana qanday holda qo‘llash mumkin	
R	Nimani qayta tiklash mumkin?	

“Loyiha” metodi:

Loyiha- tinglovchilarning muayyan muammoni yechishga yo‘naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishni ko‘zda tutuvchi metoddir.



82

“VEER” texnologiyasi:

Bu texnologiya murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“VEER” texnologiyasi umumiy mavzuni ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEER” texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin:

- boshida: o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o‘rganish jarayonida; uning asosiyalarini anglab yetish:

-yakunlash bosqichida; olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa-muayyan bir fikrga, mantiqiy, qoidalar bo'yicha dalildan natajaga kelish.

FSMU texnologiyasi.

(F) - fikringizni bayon eting.

(S) - sababini ko'rsating.

(M) - misol (dalil) keltiring.

(U) - umumlashtiring.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, babs- munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminar yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasи asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarning, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatini o'rgatadi.

Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dallillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich.

-o'qituvchi tinglovchilar bilan birga babs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lган muammoni, yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;

-o'qituvchi o'quv mashg'ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma'lumot beradi:

-mashg'ulot davomida har bir talaba o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

2- bosqich.

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayon etishga sabab ko'rsating.

M - ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qozozdagi FSMU ning 4 bosqichini o‘z fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘latadi.

3 - bosqich.

-Har bir tinglovchi o‘z qog‘ozlarini to‘latib bo‘lgach, O‘qituvchi ularni kichik guruhlarga bo‘linishlarini iltimos qiladi yoki o‘zi turli guruhlarga bo‘lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlarga bo‘lib yuboradi:

-o‘qituvchi har bir guruhda FSMU texnologiyasining 4 bosqich yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi:

-o‘qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog‘ozlardan fikr va dallillarni katta formatdagi umumlashtirgan holda 4 bosqich bo‘yicha yozishlarini taklif etadi.

4 - bosqich.

-Kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o‘zi yozgan har bir bosqichdagи fikrlari bilan guruh a’zolarini tanishtirib o‘tadi. Guruh a’zolarining barcha fikrlari o‘rganilgach, kichik guruh a’zolari ularni umumlashtirishga kirishadi:

-guruh a’zolari FSMUNing 4 bosqichini har biri bo‘yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radilar:

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o‘z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5- bosqich.

-Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar:

Guruh vakili har bir bosqichni alohida o‘qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba’zi bo‘limlarni isbotlash ya’ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o‘tishi mumkin.

6 - bosqich.

-o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:

-ushbu texnologiyadan nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o‘rgandingiz?

-ushbu texnologiyani o‘quv jarayonida qo‘llanilishi qanday samara berdi?

-ushbu texnologiyani qo‘llanilishi tinglovchilarda qanday hislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

-ushbu texnologiyaning o‘quv jarayonining qaysi bosqichida qo‘llanilgani ma’qul va nima uchun?

-ushbu texnologiyani dars jarayonida qo‘llanilishi tinglovchilarga nima beradi va nimaga o‘rgatadi?

-ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o‘tkazish mumkin?

-ushbu treningda asosiy vazifa nimadan iborat va hokazolar.

III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1 – MAVZU: TA’LIM MUASSASALARI MOLIYAVIY TA’MINOTI TARKIBI VA ULARNI BOSHQARISH

REJA:

1. Ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotining ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni.
2. Ta’lim muassasasining moliyaviy ta’minotining qonunchilik asoslari.
3. Ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minoti manbaalari va ularni boshqarishning amaldagi tizimi.
4. Ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini boshqarishning xorij tajribalari.

1. Ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotining ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni.

Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari, shuningdek investitsiyalarni jalb qilgan holda nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish orqali oliy ta’limda raqobat muhitini yaratish;
- xalqaro standartlar va milliy an'analar uyg'unligida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar, professional kadrlarni tayyorlovchi, yetakchi ta’lim va ilm-fan markazi — Prezident universitetini tashkil etish;
- oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini Investitsiya dasturlari, hududiy va tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqyosidagi texnologik o‘zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, bunda STEAM yo‘nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, ijodiy san’at va matematika) rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish;
- oliy ta’lim muassasalarining quvvati, ilmiy salohiyati va boshqa asosiy ko‘rsatkichlaridan kelib chiqqan holda to‘lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlarini oliy ta’lim muassasasi tomonidan mustaqil belgilash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

- davlat granti asosida kadrlar tayyorlash parametrlarini bosqichma-bosqich oliv ta’lim muassasalari o‘rtasida tanlov o‘tkazish yo‘li bilan taqsimlash mexanizmlarini joriy etish;
- xotin-qizlarning oliy ta’lim olishga bo‘lgan huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish, ta’lim olishda gender tengligi tamoyillari ustuvorligini ta’minlash, mahallalar, umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida muntazam ravishda xotin-qizlarni oliy ta’limga keng jalb qilishga yo‘naltirilgan keng targ‘ibot ishlarini olib borish;
- ta’limning uzlusizligiga erishish maqsadida umumiyligi o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim dasturlarining uyg‘unligi va izchilligini ta’minlash;
- oliy ta’lim muassasalarining o‘quv rejalarini kredit-modul tizimiga o‘tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich mazkur tizimga o‘tkazish;
- individual ta’lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta’lim dasturlarini shakllantirish, ularni tasdiqlash bo‘yicha oliy ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich akademik mustaqillik berish;
- mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish;
- talabalar bilimini baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisonaligini ta’minlash, jumladan baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllarini rivojlantirib borish;
- fanlarni o‘zlashtirishda talabalar orasida sog‘lom raqobatni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- o‘quv rejalarida fanlar sonini nomutaxassislik fanlari hisobiga bosqichma-bosqich kamaytirish hamda tutashlikdagi fanlarni tanlov fanlari ro‘yxatiga kiritish;
- gumanitar va pedagogik yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e’tiborni kuchaytirish, pedagogik ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha

umumta’lim maktablariga xorijiy tillarni o‘zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish;

➤ ilg‘or xorijiy tajribalar asosida oliy ta’lim muassasalariga yuqori malakali pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirib borish;

➤ oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-uslubiy faoliyat uchun mas’ul bo‘lgan mutaxassislar malakasini muntazam oshirib borish;

➤ ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha xorijiy tillarda o‘qitiladigan mutaxassislik fanlari salmog‘ini oshirib borish;

➤ magistratura talabalarining yuqori saviyada ilmiy izlanishlar olib borish, pedagogik faoliyat yuritish, boshqaruv, tanqidiy fikrlash va tizimli tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi uchun mazkur ta’lim bosqichi o‘quv reja va dasturlarini muntazam takomillashtirib borish;

➤ o‘quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratish tartibini soddalashtirish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va tarjima qilish ishlarini jadallashtirish, xorijiy adabiyotlardan qo‘srimcha yoki muqobil o‘quv adabiyotlari sifatida foydalanishni kengaytirish, kutubxonalar fondlarini muntazam ravishda yangilab borish;

➤ tanlov asosida aniqlangan va o‘quv adabiyotlariga mualliflik qilayotgan professor-o‘qituvchilarning yillik o‘quv yuklamasini taqsimlash mexanizmini takomillashtirish, bunda ularning umumiy yillik yuklamalarida o‘quv adabiyotlarini yaratish uchun ajratilgan vaqtini dars o‘tish yuklamasi vaqtini hisobidan oshirishni nazarda tutish;

➤ imkoniyati cheklangan talabalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari turlarini ko‘paytirish va ularning sifatini yaxshilash, ta’limda inklyuziv jarayonlarni rivojlantirish, adaptiv texnologiyalarni joriy etish;

➤ barcha oliy ta’lim muassasalarida dars mashg‘ulotlari bo‘yicha talabalar fikrini o‘rganish (feedback) hamda o‘zaro tashrif (peer review) tizimini rivojlantirish asosida talabalarga ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilab borish;

➤ fan sohalari bo‘yicha professor-o‘qituvchilarning kasbiy muloqot maydonchalarini yaratish, ta’lim sifatini ta’minlash jarayoniga talabalarni keng jalg etish hamda «tyutorlik» tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish orqali talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirish;

➤ xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, talaba-yoshlarning akademik faoliyati, muammolari va turmush tarzi, o‘quv jarayoni hamda yaratilgan sharoitlar bo‘yicha talabalar fikr-mulohazalarini o‘rganish maqsadida ular o‘rtasida har yili respublika miqyosida milliy so‘rov o‘tkazish;

- oliy ta’lim muassasalari, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘quv-pedagogik va ilmiy faoliyat yuritish uchun xorijlik yuqori malakali professor-o‘qituvchilar va mutaxassislar, ta’lim va ilm-fan sohasida faoliyat yuritib, salmoqli yutuqlarga erishgan, yurt rivojiga hissa qo‘sish istagida bo‘lgan xorijdagi vatandoshlarni jalg etish, bu borada ularga akademik va infratuzilmaga oid qulayliklar yaratib berish;
- yuqori malakali professor-o‘qituvchilar, olimlarni ta’lim jarayoniga jalg qilishning samarali mexanizmlarini yaratish, muayyan ko‘rsatkichlar asosida ularning faoliyatini baholash tizimini rivojlantirish;
- oliy ta’lim muassasalarida milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlariga ega bo‘lgan, xorijiy tillarni mukammal o‘zlashtirgan professor-o‘qituvchilar va talabalar ulushini tizimli ravishda oshirib borish;
- «El-yurt umidi» jamg‘armasi ko‘magida professor-o‘qituvchilarni xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o‘tash, magistratura va doktoranturada o‘qitish orqali ularning kasbiy mahoratini oshirib borish;
- ko‘p yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan amaliyotchi mutaxassislarni ta’lim jarayoniga keng jalg qilish, professor-o‘qituvchilarning tegishli soha korxona va tashkilotlarida stajirovka o‘tashini tizimli tashkil etish;
- ijtimoiy soha va iqtisodiyotning barcha tarmoqlari mutaxassislari uchun uzluksiz malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimlarini joriy etishning me’yoriy-huquqiy va o‘quv-metodik asoslarini takomillashtirib borish, bu borada masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ishdan ajralmagan holda o‘qishini ta’minlash maqsadida sirtqi va kechki ta’lim shakllarida kadrlar tayyorlashni rivojlantirish, bunda raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish;
- iqtisodiyotning zamonaviy talablariga muvofiqlikni ta’minlash maqsadida davlat ta’lim standartlarini takomillashtirib borish;
- talabalarning ishlab chiqarish, malakaviy va boshqa turdagи amaliyotlarini mazmunli tashkil etish uchun uslubiy bazani ishlab chiqish va rivojlantirib borish;
- respublika oliy ta’lim muassasalariaro ichki akademik mobillik dasturlarini, o‘zaro tajriba almashish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish;
- xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik doirasida professor-o‘qituvchilar va doktorantlar akademik mobilligi dasturlarini rivojlantirish;
- oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishda ichki nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini takomillashtirish;
- oliy ta’lim muassasalariga qabul jarayonlarida bitiruvchilarning attestatidagi o‘rtacha bahoni inobatga olgan holda, ta’lim yo‘nalishlariga mos

bo‘lgan fanlardan milliy va xalqaro baholash tizimlari sertifikatlariga ega bo‘lgan abituriyentlarni oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tajribasini bosqichma-bosqich amaliyatga joriy etish;

➤ milliy baholash tizimi sertifikatlari taqdim etiladigan fanlar ro‘yxatini kengaytirish, bunday xizmatlar ko‘rsatadigan davlat va nodavlat muassasalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;

➤ oliy ta’lim muassasalari fan olimpiadalarini o‘tkazish tartibini takomillashtirish, shaffoflikni ta’minlash, baholash mexanizmlarini xalqaro olimpiada va tanlovlardan mezonlariga moslashtirish.

2. Ta’lim muassasasining moliyaviy ta’minotining qonunchilik asoslari.

Oliy ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini mustahkamlash muammolarini muvaffaqiyatli hal etishda eng avvalo hisobga olinishi lozim bo‘lgan holatlardan biri sifatida oliy ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini mustahkamlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki hozirgi sharoitda masalaning ana shu jihatiga, ya’ni oliy ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini mustahkamlashning huquqiy asoslarini chuqr o‘rganmasdan turib, muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish murakkabligicha qolaveradi.

Shu munosabat bilan mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini mustahkamlashning huquqiy asoslarini, eng avvalo, aniq ko‘rinishda O‘zbekiston Respublikasining “Konstitutsiyasi”da, “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlarida o‘z aksini topganligini alohida qayd etib o‘tish lozim. Haqiqatdan ham ushbu qonunlarni sinchiklab o‘rganar ekanmiz mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini mustahkamlashning huquqiy asoslarini ana shu huquqiy hujjatlarda ifoda etilganligini aniqlashimiz mumkin.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunini tahlil qilar ekanmiz, uning moddalari ketma-ketligiga qat’iy rioya etgan holda oliy ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini mustahkamlashning huquqiy asosi sifatida e’tirof etilishi lozim bo‘lgan quyidagi holatlarni qayd etib o‘tishimiz mumkin:

Birinchidan, ushbu qonunning “Bilim olish huquqi” deb nomlangan 4-moddasida, jumladan, “Bilim olish huquqi: ...ta’lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o‘qitish, shuningdek ta’lim muassasalarida shartnoma asosida to‘lov evaziga kasb-hunar o‘rgatish ... orqali ta’minlanadi”, - deyilgan. Ko‘rinib turibdiki, qonunning bu moddasida mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini amalga oshirish shakllari mujassamlashgan bo‘lib, ular o‘zining xilma-xil bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatayapti. Qonunning

ushbu moddasiga muvofiq xozirgi kunda oliy ta’lim muassasalariga davlat budgetidan o‘qitishning ta’lim granti shaklida mablag‘ ajratiladi va belgilangan tartibda o‘qitishning to‘lov kontrakt shaklidan mablag‘lar tushimi amalga oshiriladi. Bu yerda ushbu holatning mavjudligi oliy ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini mustahkamlash masalalarida bir qancha muammolarni keltirib chiqaradiki, amaliyotda ularni muvaffaqiyatli yoki oqilona hal etmasdan turib tegishli vazifani bajarishning iloji bo‘lmasligi doim diqqat markazda turmog‘i lozim.

Ikkinchidan, ushbu qonunning “Ta’lim muassasasining huquqiy maqomi” deb nomlangan 6-moddasida “...Ta’lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug‘ullanishga haqli” ekanligi o‘z aksini topgan. Fikrimizcha, qonunning bu moddasida oliy ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini mustahkamlashning keng zahiralari mavjud ekanligiga huquqiy maqom berilgan. Qonunning ushbu moddasi ijrosini ta’minlash bo‘yicha xozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida pullik ta’lim xizmatlari tashkil etilmoqda, xo‘jalik shartnomalariga asosan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshrilmoqda. Shu munosabat bilan, masalaga oliy ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini mustahkamlash nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, u holda qonun ushbu modda talablarining amaliyotda qanday bajarilayotganligi yoki bajarilmayotganligini hisobga olib, tegishli masala ahvolining qandayligiga va uning sabablari nimalardan iborat ekanligiga baho berishimiz mumkin. Ushbu qonunning ta’lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish masalalari aks ettirilgan 21-moddasida “...Ta’lim muassasalari ish haqiga mo‘ljallangan mavjud mablag‘lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqlashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to‘lash va uni rag‘batlantirishning turli shakllarini qo‘llashga haqli”, - deb ko‘rsatilgan bo‘lib, oliy ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini mustahkamlashning juda katta zahiralari ana shu moddada aks ettirilgan. Ya’ni ta’lim muassasalari amaldagi qonunchilik talablariga asosan xodimlarni rag‘batlantirishni turli shakllarini qo‘llamoqda. Masalan xodimlarni moddiy rag‘batlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga ustamalar, rag‘batlantirish to‘lovlarini amalga oshrilmoqda.

Uchinchidan, “Davlat ta’lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy budgetlar mablag‘lari, shuningdek, budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi”, - deyilgan tartib “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning “Ta’limni moliyalash”, - deb nomlangan 31-moddasida ifodalangan.

To‘rtinchidan, ushbu qonunning “Ta’limni rivojlantirish fondlari” deyilgan 32-moddasida “Ta’limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan

tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin”ligi e’tirof etilgan. Qonunning bu moddasida ham oliy ta’lim muassasalari moliyaviy ta’mintoni mustahkamlashning zamonaviy va bozor iqtisodiyotining talablariga javob beradigan zahiralari o‘z ifodasini topgan bo‘lib, u o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatga ega. Unga ko‘ra oliy ta’lim muassasasining moliyaviy ta’mintoni mustahkamlashning bu imkoniyatlari va zahiralaridan foydalanish bevosita shu oliy ta’lim muassasasining o‘z xatti-harakatiga, yuridik va jismoniy, shuningdek, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo‘lgan o‘zaro aloqalari, obro‘-e’tibori va ularning natijalilik darajasiga bog‘liq.

3. Ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minti manbaalari va ularni boshqarishning amaldagi tizimi.

OTMni budget mablag‘lari hisobidan moliyaviy ta’minalash va uning o‘ziga xos jihatlari bu mablag‘larning konkret (aniq) tarkibiy qismlari bo‘yicha tahlil qilinganda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan qayd etish lozimki, hozirgi bizning amaliyotimizda budget mablag‘lari hisobidan OTMning moliyaviy ta’mintoni amalga oshirish quyidagi aniq yo‘nalishlarga muvofiq sodir etilmoqda:

- a) ish haqi;
- b) ish haqiga ajratmalar;
- v) stipendiyalar;
- g) boshqa xarajatlar.

Ana shu kesimda OTMni moliyaviy jihatdan ta’minalashda budget mablag‘laridan foydalanish holatini tahlil qilib chiqish bu jarayonda uning rolini ko‘rsatish va xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida bozor munosabat-larining kirib kelishi va ularning rivojlanishi ijtimoiy sohani, shu jumladan, OTMni moliyalashtirishda an'anaviy tarzda qo‘llanilib kelingan manbalarning kengaytirilishini taqozo etdi. Shu munosabat bilan OTMni moliyalashtirishda budget mablag‘lari bilan bir qatorda budgetdan tashqari mablag‘lar ham muhim rol o‘ynay boshladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki aslida bozor iqtisodiyoti va uning tub prinsiplaridan kelib chiqiladigan bo‘lsa, OTMni moliyalashtirishda budget mablag‘laridan foydalanishdan ko‘ra budgetdan tashqari mablag‘lardan foydalanish uning talablariga ko‘proq javob beradi yoki mos keladi. Buning ustiga, OTMni moliyalashtirishda budgetdan tashqari mablag‘lardan foydalanish shu OTMning o‘z faoliyatini natijalari bilan bog‘liq bo‘lgan holatni o‘ziga ko‘proq mujassam qiladi.

Hozirgi sharoitda mamlakatimizda OTM faoliyatini moliyaviy jihatdan

ta’minlashda budgetdan tashqari mablag‘lar qanchalik muhim ahamiyat kasb etayotgan bo‘lishiga qaramasdan, ular tarkibining xilma-xil ekanligi va bu jarayonda ular rolining turlicha bo‘lishi mumkinligi ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

Shu munosabat bilan, dastlab OTM faoliyatini moliyaviy jihatdan ta’minlashda ishtirok etayotgan budgetdan tashqari mablag‘lar tarkibining xilma-xil ekanligi va ular, asosan, quyidagi ikki guruhga bo‘linishini ko‘rsatib o‘tishimiz kerak:

1. To‘lov-kontrakt mablag‘lari;
2. Tadbirkorlik asosida ishlab topilgan mablag‘lar.

O‘z navbatida, tadbirkorlik asosida ishlab topilgan mablag‘lar ham ikki guruhga bo‘linadi:

1. Xo‘jalik shartnomalari asosida kelib tushgan mablag‘lar;
2. Qo‘sishimcha ta’lim xizmatlari ko‘rsatishdan olingan mablag‘lar.

OTM faoliyatini moliyaviy jihatdan ta’minlashda ishtirok etadigan budgetdan tashqari mablag‘larning tarkibida asosiy o‘rinni to‘lov-kontrakt mablag‘lari egallab, ularning salmog‘i muttasil ravishda oshib borish tendensiyasiga ega.

OTMning moliyaviy ta’midotida budget mablag‘larining salmog‘i pasayib borish tendensiyasiga ega bo‘lib borayotgan bo‘lishiga qaramasdan, oxirgi yillarda uning darajasi 33-35% atrofida ekanligini qayd etishimiz mumkin. Bu hozirgi sharoitda mamlakatimizda OTMni moliyaviy jihatdan ta’minlashning 1/3 qismi budget mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayapti, demakdir.

Keyingi yillarda OTM faoliyatini moliyaviy jihatdan ta’minlashda budgetdan tashqari mablag‘lar rolining kuchayib borayotganligi sharoitida tadbirkorlik asosida ishlab topilgan mablag‘lar tarkibida qo‘sishimcha ta’lim xizmatlari ko‘rsatishdan olingan mablag‘larga ham katta e’tibor berilmoqda.

Bunday sharoitda mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish OTM moliyaviy ta’motini mustahkamlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilishi, tabiiydir.

OTMdai budget mablag‘laridan samarali foydalanmaslikning asosiy sabablariga bugungi kunda ko‘p uchrayotgan jarayonlar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Mas’ul va mansabdor shaxslar tomonidan OTMdai pul mablag‘lari va moddiy boyliklar kamomadi hamda o‘zlashtirishlarga yo‘l qo‘yilayotganligi va ularning takroriy xarakterga ega ekanligi;
2. Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzishda amaldagi me’yoriy hujjatlar talablariga to‘liq rioya etilmaganligi;
3. Mas’ul xodimlar tomonidan amaldagi me’yoriy hujjatlar talablariga rioya

etilmaganligi oqibatida budjet mablag‘larining noqonuniy va ko‘zda tutilmagan maqsadlarga sarflanishiga yo‘l qo‘yilayotganligi;

4. OTMdida Adliya vazirligida 2004 yil 16 aprelda 1339-son bilan ro‘yxxatga olingan “Oliy ta’lim muassasalari talabalariga stipendiyalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomaga talablariga to‘liq rioya etilmaganligi sababli ortiqcha va noqonuniy to‘lov larga yo‘l qo‘yilayotganligi;

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 2 apreldagi 154-sonli “Budgetdan mablag‘ bilan ta’milanadigan tashkilotlarda xizmat yengil avtotransportidan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi qarori talablarining to‘liq bajarilishi ta’milanmaganligi;

6. OTMning mas’ul xodimlari tomonidan ijara to‘lovlari belgilangan tartibda undirilishi yuzasidan nazorat talab darajasida olib borilmaganligi sababli xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganligi;

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq xo‘jaligida hisob-kitoblar o‘z vaqtida o‘tkazilishi uchun korxona va tashkilotlar rahbarlarining mas’uliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1995 yil 12 maydagi PF-1154-sonli Farmoni talablariga yetarli darajada rioya etilmayotganligi;

8. Buxgalteriya hisobini yuritishda O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni talablariga to‘liq rioya etilmayotganligi va h.k.

OTMdida budjet mablag‘laridan bunday yo‘nalishlarda samarasiz foydalanilayotganlarining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

a) OTMning mas’ul xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Budget tizimi to‘g‘risida”gi qonuni mohiyatini yetarli darajada tushunib yetmayotganligi;

b) OTM rahbarlari tomonidan budjet mablag‘larini sarflash ustidan nazoratni talab darajasida olib borilmayotganligi;

v) budjet mablag‘lari xarajatini rejalashtirishda mas’ul xodimlar tomonidan tegishli me’yoriy hujjatlar talablariga to‘liq amal qilinmasligi;

g) budjet mablag‘laridan samarali foydalanish bo‘yicha mas’ul xodimlar ishtirokida doimiy ravishda amaliy seminar va yig‘ilishlarning o‘tkazib turilmamasligi va boshqalar.

Shu munosabat bilan, OTM moliyaviy ta’mintoni mustahkamlash maqsadida budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- OTMdida har chorak yakuni bo‘yicha topshiriladigan hisobotlarda vakant shtatlariga rejalashtirilgan mablag‘larni inobatga olinishiga alohida e’tibor qaratish;

- OTM mas’ul xodimlarining bilimi va mas’uliyatini oshirish maqsadida moliya organlari va Nazorat-taftish boshqarmalari xodimlari ishtirokida seminarlar tashkil etib, ularda tekshirishlar natijasida aniqlangan xato va kamchiliklarni muhokama etishga ko‘proq e’tibor berish;

- javobgar shaxslar bilan moddiy javobgarlik to‘g‘risida shartnomalarning belgilangan tartibda tuzilishini hamda tovar-moddiy boyliklar va naqd pullarni belgilangan muddatlarda muntazam ravishda sanoqdan o‘tkazilib borilishini yo‘lga qo‘yish;

- OTMning iqtisodchi xodimlari o‘rtasida aniq vazifalar va javobgarlik belgilangan ish taqsimotini ishlab chiqish hamda yuklatilgan vazifalarni har bir mas’ul xodim tomonidan bajarilishini qat’iy nazoratga olish;

- OTMdak moddiy javobgar (kassir, ombor mudiri, xo‘jalik ishlari mudiri, ta’minotchi va b.) va hisobchi (ish haqi va moddiy boyliklar hisobini yurituvchi) xodimlarni ma’lum muddatlarda almashtirib turish yoki rotatsiya qilish.

Shu bilan bir qatorda OTMdak budget mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishning eng asosiy yo‘llaridan biri sifatida shu muassasada budget mablag‘larining sarflanishiga bevosita va bilvosita daxldor bo‘lgan shaxslarning javobgarligi va mas’uliyatini keskin oshirish e’tirof etilmoqda.

Albatta, yuqoridagi ishlarning sistematik tarzda uddalanishi OTMni moliyalashtirishda budget mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishda o‘zining munosib hissasini qo‘sishi mumkin.

OTMdak faqat sarflanayotgan budget mablag‘larining yuqori samaradorligiga erishish emas, balki budgetdan tashqari mablag‘lardan ham samarali foydalanish masalalariga jiddiy e’tibor bermoq lozim. Chunki ular faoliyatining asosiy qismi ana shu mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilmoqda.

Haqiqatdan ham budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirishni kuchaytirish hozirgi paytda OTM moliyaviy ta’minotini mustahkamlashning muhim yo‘nalishi sifatida e’tirof etilishi, shak-shubhasizdir.

OTM moliyaviy ta’minotini mustahkamlashda “budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirishni kuchaytirish” deganda faqat budgetdan tashqari mablag‘lar hajmi (summasi)ning ham absolyut va ham nisbiy ko‘rsatkichlarda ko‘payishi nazarda tutilmayotganligini qayd etib o‘tish zarur. Bu jarayondagi “budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirishni kuchaytirish” kompleks tushuncha bo‘lib, u bu mablag‘lar summasi hajmi (miqdori)ning ortishidan tashqari yana ularni shakllantirish va foydalanishning tartibi, shart-sharoitlari, usullari, metodlari va h.k.larni ham qamrab oladi.

OTMni budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirishni kuchaytirishning katta zahiralari bu muassasalar doirasida tadbirkorlik faoliyatini

rivojlantirish (albatta, oliy ta’lim jarayonlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmagan holda) va shu asosda ishlab topilgan pul mablag‘larini ko‘paytirishdadir.

4. Ta’lim muassasalari moliyaviy ta’minotini boshqarishning xorij tajribalari.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim cohacidagi davlat ciëcatining mazmyni ta’lim tapaqqiyotini yukopi bocqichlap eng ilg‘op xopijiy mamlakatlap ta’limi dapajaciga ko‘tapishtirish, jahon tajpibacini o‘pganish acocida bapkamol shaxc va malakali mytaxaccicni tapbiyalab voyaga etkazishdan ibopatdip. Ma’lumki, ta’lim tizimi deb muayyan jamiyatda ijtimoiy-tarixiy jarayonda tarkib topgan, ma’lum tamoyillar asosida boshqariladigan hamda bir-biri bilan bog‘langan barcha tipdag‘i o‘quv-tarbiya muassasalari yig‘indisiga aytilar ekan, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng barcha sohalar qatori ta’lim tizimini rivojlantirish, uning sifatini oshirish, boshqarish, bu jarayonda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish masalalariga katta e’tibor qaratila boshlandi.

Ta’lim sifati va uni boshqarish masalalariga ilmiy nuqtai-nazardan yondashish xorijda XX asrning 20-yillardan boshlangan. Mazkur jarayonda ta’lim sifatini boshkarish samaradorligini oshirish usullarini izlash ishlari dastavval ijtimoiy boshqaruvning umumiyligi nazariyasi yutuqlari asosida amalga oshirilgan. Shuni ta’kidlash lozimki, ta’lim sifati va uni boshqarish muammolari aksariyat tadqiqotlarda oliy ta’lim tizimi va uni amalga oshiruvchi ta’lim muassasalari misolida tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlarda oliy ta’limdan keyingi ta’lim, xususan malaka oshirish ta’limining muammolari alohida qaralmagan yoki oliy ta’limning mantiqiy davomi sifatida mushtaraklikda o‘rganilgan. Shuning uchun ham ko‘pgina tadqiqotlarda malaka oshirish ta’limi ham oliy ta’lim muassasalari amalga oshiradigan faoliyat tarzida yoritilgan.

Ta’lim sifati muammolarini muhokama qilishda uning baholanishi, nazorati, monitoringu sifatning ta’minlanishi va boshqalar hakida so‘z yuritiladi. Bu atamalarning ishlatilishiga aniqlik kiritish uchun ularning ingliz tilidagi ma’nosini va uzbek tilida ularga mos keluvchi so‘zlarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Sifat nazorati (quality control) kutilayotgan sifatning muayyan darajasiga erishishga yo‘naltirilgan sifatni baholashning tashqi protseduralarini belgilashda qo‘llaniladi.

Sifat monitoringi (quality monitoring) sifatning u yoki bu mezonlari va indikatorlarini bevosita baholash yoki kuzatish protseduralarini ko‘zda tutadi, sifat «darjasasi»ni aniqlaydi, shuningdek, moddiy sarf-xarajatlarning samaradorligini baholash bilan ham bog‘lik bo‘ladi.

Oliy ta’lim sifati muammolariga doir ingliz tilidagi nashrlarda qator

bosqichlardan (rejalarshirish, baholash va monitoring, tahlil va boshqa bosqichlar) iborat ham tashqi, ham ichki baholashni - keng ma’nodagi sifatni baholash tizimini anglatuvchi «quality assessment» atamasi ko‘proq ishlatiladi. Tor ma’noda sifatni baholash protseduralarini belgilashda «quality evaluation», «quality audit» , «quality judgement» kabi atamalar qo‘llaniladi.

Shuningdek, Yevropada sifatni ta’minlash yoki sifat kafolati tarzida tarjima qilinishi mumkin bulgan «quality assurance» atamasi ham ishlatiladi. Sifatni ta’minlash tizimi baholash bilan bog‘liq bo‘lgan bosqichlardan tashqari ularni joriy etish bosqichlarini takomillashtirishga doir izlanish va qaror qabul qilish bosqichlarini ham qamrab oladi. Sifatni ta’minlash tizimining eng muxim xususiyati uning davriyligi va takomillashib borishga moyilligidir.

1995 yili YuNESKO tomonidan «Oliy ta’limni islox qilish va rivojlantirish» nomli dastur ishlab chiqilgan bo‘lib, unda asrlar almashinuvi davrida oliy ta’limni rivojlantirishning dunyo miqyosidagi tendensiyasi va vazifalari bayon etilgan.

Ta’lim cifatini baholash myammoci hamma vaqt dolzabp bo‘lgan, faqat keyingi yillapda bu macala echimiga tizimli majmyaviy tapzda ëndashila boshlandi. Chet el olimlapi va amaliëtchilapi ta’lim cifatini tadqiq qilish doipacida ta’lim cifati tyshynchacining o‘zini aniqlashtipmoqdalap, baholash mezonlapini ishlab chiqmoqdalap, yuqopi cifatni ta’minlovchi omillapni tacnifamoqdalap, ta’lim cifatini boshqapish va monitopingi myammolapini o‘pganmokdalap.

Ta’limni baholashning o‘zapo tan olinadigan tizimlapini jopiy etish opqali taqqoqlash imkonini bepyvchi ta’lim cifatini ta’minlash Yevpopa mamlakatlapi yagona ta’lim makonini shakllantipishning muhim shaptlapidan bipidip. Dynëda mavjyd ta’lim cifatini baholash tizimlapini shaptli pavishda ikkita modelga bo‘lish mumkin.

Bipinchı model - oliy ta’lim myaccacacining jamiyat va davlat oldidagi mac’yliyatini attectasiya, akkpeditasiya va nazopat kilish vocitacida tashqi baholashga acoclangan «fpansyzcha» modeli. Bynday model Skandinaviya mamlakatlapi, Chexiya, Latviya, Estoniya va boshqa mamlakatlapda qo‘llaniladi. Ushbu mamlakatlarda davlat opganlapi tomonidan baholashning maqcadi shakllantipiladi, baholashning eng muhim jihatlapi belgilanadi, ta’lim japaenini tashkil etishga doip qapoplal qabyl qilinadi. Ta’lim myaccacaci tomonidan o‘zini-o‘zi baholashga yuzaki qapaladi, chunki acociy e’tibop tashqi baholashni camapali o‘tkazishga qapatiladi.

2 –NAZARIY MASHG‘ULOT

MAVZU: TA’LIM MUASSASALARIDA O‘Z-O‘ZINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TASHKIL ETISH, MOLIYAVIY MUSTAQILLIK (2 SOAT)

REJA

1. Ta’lim muassasalari o‘z-o‘zini moliyalashtirish tizimiga o‘tishning zaruriyati, ahamiyati, yo‘llari.
2. Ta’lim muassasasida ilmiy-innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish.
3. Ta’lim muassasasi investitsiyalarni jalg etishning asosiy yo‘nalishlari.
4. Ta’lim muassasalarini moliyaviy mustaqilligi sharoitida o‘quv, uslubiy, ilmiy, ma’naviy, ma’rifiy va tashkiliy faoliyatini moliyaviy ta’minotini tashkil etish.

1.Ta’lim muassasalari o‘z-o‘zini moliyalashtirish tizimiga o‘tishning zaruriyati, ahamiyati, yo‘llari.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi to‘laqonli yangilanish davrida turibdi. Bunda eng asosiy bo‘g‘in bo‘lib ta’lim muassasalari turadi. Ta’lim muassasalari yetakchi xorij davlatlari tajribasini qo‘llagan holda o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga bosqichma-bosqich o‘tmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida barcha dolzarbliklari va axamiyati ko‘rsatib o‘tilgan hamda qonunda quyidagilar nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida» 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-son Farmoni va «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2019 yil 11 iyuldaggi PQ-4391-son qarori ijrosini ta’minlash hamda oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish, ularga budgetdan tashqari mablag‘larni jalg qilishda ko‘proq imkoniyatlar yaratish, oliy ta’limdagi islohotlar samaradorligini va ta’lim sifatini yanada oshirish, professor-o‘qituvchilar va talabalarga zamonaviy shart-sharoitlar yaratish maqsadida quyidagilarni bajarish lozim:

1. Ilmiy pedagogik salohiyati yuqori, moliyaviy faoliyati barqaror, moddiy-texnika bazasi yetarli darajada, ta’lim xizmatlari bozorida bakalavriat ta’lim

yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga talab yuqoriligini inobatga olib, 2020 yil 1 yanvardan boshlab, tajriba-sinov tariqasida o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tayotgan oliy ta’lim muassasalari ro‘yxati [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlash;

2. Quyidagilar o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tayotgan oliy ta’lim muassasalarining qo‘srimcha vazifalari etib belgilash:

- qo‘srimcha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, iqtisodiyot tarmoqlari mutaxassislarining malakasini oshirish va boshqa pullik xizmatlarni joriy etish;

- tegishli sohadagi dolzarb muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlarni tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda sohaning ilmiy muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan fundamental, amaliy va innovatsion izlanishlarni amalga oshirish;

- respublika va xorijiy oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy markazlarga istiqbolli yosh bitiruvchilarni magistratura va doktoranturaga muntazam yuborish orqali oliy ta’lim muassasasining ilmiy-pedagogik salohiyatini doimiy oshirib borish;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalana oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan professor-o‘qituvchilarni tanlash maqsadida oliy ta’lim muassasasi hamda professor-o‘qituvchilar o‘rtasida bir yillik muddatli shartnomalar tuzish amaliyotini joriy etish.

3. O‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tayotgan oliy ta’lim muassasalari vasiylik kengashlariga quyidagi vakolatlar berilishi:

oliy ta’lim muassasasining moliya yili uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi (unda muassasaning asosiy faoliyati ko‘rsatkichlari jumladan, muassasada kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etishning maqsadlari, rejalshtirilayotgan natijalari va tahlili ko‘rsatiladi) hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash va ularning ijrosini muhokama qilish;

oliy ta’lim muassasasi tomonidan avtotransport vositalari, shuningdek, boshqa asosiy vositalarni xarid qilish va ularni hisobdan chiqarishga (bino va inshootlar bundan mustasno) hamda bino, inshootlarni kapital ta’mirlash, rekonstruksiya qilishga ruxsat berish;

oliy ta’lim muassasasining yillik hamda davriy moliyaviy hisobotlarini muhokama qilish va tasdiqlash;

oliy ta’lim muassasasini rivojlantirish va moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq boshqa masalalarni hal etish, shu jumladan maqsadli kapital jamg‘armasini (endaument fond) shakllantirish;

zarur hollarda, oliy ta’lim muassasasi rektorining asoslangan murojaatiga ko‘ra, oliy ta’lim muassasasining moliyaviy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash

maqsadida respublika tijorat banklaridan kreditlar olish masalalarini ko‘rib chiqish;

oliy ta’lim muassasasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berish, shu jumladan, yangi fakultetlar, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini joriy etish;

bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda oliy ta’lim muassasasi rektori va oliy ta’lim muassasasi kengashi vakolatini belgilash, shu jumladan, xarajatlar smetasiga hamda shtatlar jadvaliga o‘zgartirishlar kiritish, asosiy vositalarni xarid qilish va oliy ta’lim muassasi tasarrufidagi mablag‘lar, moddiy boyliklar va mulkdan foydalanish bo‘yicha vakolatlar doirasini belgilash;

oliy ta’lim muassasasida samaradorlik mezonlariga asoslangan mehnatga haq to‘lash tizimini joriy etish va tartibini belgilash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2019 yil 11 iyuldaggi PQ-4391-son **qaroriga** muvofiq o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tayotgan oliy ta’lim muassasalariga quyidagi xuquqlar berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinishi:

a) yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish, ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini oshirish maqsadida xodimlarga ustamalar va moddiy rag‘batlantirishning boshqa turlari miqdorlarini mustaqil belgilash;

b) iqtidorli, shuningdek aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlaridan bo‘lgan talabalarni moddiy rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash;

v) saqlash xarajatlari, vazifa va majburiyatlarni bajarish, o‘qitishning innovatsion shakl va uslublarini joriy etish hamda xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, dasturiy ta’minotlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, o‘quv va ilmiy laboratoriylar hamda sarflanadigan laboratoriya materiallarini (reakтивлар, kimyoiy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa ob’ektlar), shu jumladan kitoblar, jurnallar, o‘quv adabiyotlari xarid qilish va chop ettirish uchun mablag‘larni mustaqil sarflash;

g) oliy ta’lim muassasasi infratuzilmasiga servis xizmatlari ko‘rsatishning alohida turlari, jumladan bino va inshootlar, talabalar turar joylari, sport ob’ektlaridan foydalanish, ularni tozalash, ta’mirlash, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya tarmoqlarini saqlash va yuridik xizmatlar ko‘rsatishni autsorsing shartlarida tashkil etish;

d) bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda:

oliy ta’lim muassasasining ilmiy-pedagogik salohiyati, uning moddiy-texnik bazasi imkoniyatlarini inobatga olib, talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarini belgilash, yangi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va

magistratura mutaxassisliklarini ochish;

oliy ta’lim muassasasini o‘zini o‘zi to‘liq moliyaviy ta’minlash miqdoridan kelib chiqib, to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini belgilash.

Bunda, 2020/2021 o‘quv yildan boshlab, to‘lov-kontrakt asosida qabul qilingan talabalar uchun to‘lov-kontrakt qiymati miqdorlari bir talabani bir yillik o‘qitish xarajatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalarida davlat buyurtmasi asosida ta’lim olayotgan talabalarni o‘qitish bilan bog‘liq xarajatlar uchun budget mablag‘larini ajratish bakalavriat ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi), turi, bosqichi va shaklidan kelib chiqib davlat granti asosidagi o‘rin uchun sarflanadigan xarajatlarning normativ miqdorlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, budgetdan ajratiladigan mablag‘larning yillik cheklangan summasi davlat granti asosida ta’lim olayotgan kontingent soni va har bir davlat granti asosidagi o‘rin uchun sarflanadigan xarajatlarning normativ miqdorlari asosida hisoblanadi;

o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalarida davlat buyurtmasi asosida ta’lim olayotgan talabalar uchun budget mablag‘lari bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik va idora hamda oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida imzolanadigan davlat buyurtmasini bajarishni moliyalashtirish bitimi asosida xarajatlar smetasida budget tizimi budgetlari iqtisodiy xarajatlar tasnifining bir satrida rejalshtirilgan holda ajratiladi (maqsadli mablag‘lar, shu jumladan stipendiya to‘lovlari, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim xarajatlari, kapital qo‘yilmalar xarajatlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida ajratiladigan mablag‘lar bundan mustasno);

o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalarida davlat buyurtmasi asosida ta’lim olayotgan talabalar uchun ajratilgan budget mablag‘lari (maqsadli mablag‘lar bundan mustasno) oliy ta’lim muassasasining budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkaziladi va hisobot davri oxirida mablag‘larning qoldig‘i oliy ta’lim muassasasi hisobida qoldiriladi;

o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalarining budget va budgetdan tashqari mablag‘laridan oqilona va samarali foydalanish, jumladan xodimlar mehnatiga haq to‘lash va stipendiya to‘lovlarini o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirish uchun javobgarlik mazkur muassasalar rektor (direktor)lari zimmasiga yukланади.

2.Ta’lim muassasasida ilmiy-innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish.

O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim muassasalarini o‘zini o‘zi moliyalashtirishda asosiy moliyalashtirish manbai bo‘lib ilmiy-innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish bo‘lib hisoblanadi. Ushbu jarayonning xuquqiy asosi bo‘lib o‘zbekiston respublikasi prezidentining “*Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida*” gi qaror turadi. Ushbu qarorda quyidagilar keltirilib o‘tilgan:

Mamlakatimizda ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyatni amalga oshirish, ilmiy-texnikaviy va innovatsion rivojlanishni ta’minalash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishda mavjud moliyaviy va moddiy resurslardan samarali foydalanishni ta’minalash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, 2014 — 2018 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘laridan ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalar hamda ishlanmalarni moliyalashtirish uchun qariyb 800 milliard so‘m ajratilib, ularning natijalariga ko‘ra ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari tomonidan 700 dan ortiq ixtiro patentlashtirildi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mamlakat ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalarining ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyati natijalarini tijoratlashtirishda mavjud salohiyatdan yanada to‘liq foydalanish zaruratini taqozo etmoqda.

Biroq, ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalaridan amalda foydalanishning tahlili ularni yaratish, huquqiy muhofaza qilish va joriy etish jarayonida tizimi muammolar mavjudligidan dalolat bermoqda, xususan:

birinchidan, oxirgi 5 yil ichida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan va patentlangan ixtiolar sonining yiliga 0,5 foizini tashkil etuvchi tijoratlashtirish darajasi yetarli emas;

ikkinchidan, chop etilgan ilmiy maqolalar va yaratilgan intellektual mulk ob’ektlari soni ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlari bo‘lib qolmoqda, bunda ularni joriy etish natijalari hisobga olinmayapti;

uchinchidan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari ularning tasarrufidagi ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalarining ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyati natijalari uchun, shuningdek, ilmiy-texnikaviy dasturlarga davlat mablag‘lari sarflanishining samaradorligi uchun lozim darajada mas’uliyatni namoyon etmayapti;

to‘rtinchidan, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishning, shu jumladan, ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalar hamda ishlanmalar ro‘yobga chiqarilishida iqtisodiyotning real sektori korxonalari ishtirokini rag‘batlantirishning samarali vositalari joriy etilmagan;

beshinchidan, amaldagi standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimi ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini ishlab chiqarishga tezkorlik bilan joriy etishni ta’minlamayapti.

Mahalliy ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalar hamda ishlanmalarni jadal joriy etishni ta’minlash, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini kuchaytirishda ilm-fan hissasini oshirish, shuningdek, ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyatning istiqbolli mahalliy yutuqlarini ilgari surishning samarali mexanizmlarini yaratish maqsadida:

1. Quyidagilar ilmiy-tadqiqot va oliv ta’lim muassasalarining (keyingi o‘rinlarda muassasalar deb yuritiladi) ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish sohasidagi asosiy vazifalari etib hisoblansin:

respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini jadal va keng joriy etish;

fanlararo aloqalarni, shu jumladan, xalqaro fanlararo aloqalarni shakllantirish jarayonlarini rag‘batlantirish, qo‘shma dasturlar ishlab chiqish va jamoalarni yaratish;

ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyatni iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirishning aniq vazifalarini hal etishga, shuningdek, ichki va tashqi bozorlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan amaliy natijalarni olishga yo‘naltirish;

yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni yaratishga xizmat qiladigan yuqori texnologiyalarni ishlab chiqish sohasida innovatsion tadqiqotlarni olib borish;

tadqiqotlarni mamlakatni izchil rivojlantirish bo‘yicha zamon talablariga javob beradigan, tijoratlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlar va texnologiyalarni jadal ishlab chiqishga yo‘naltirish.

2. Quyidagilar ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning asosiy usullari etib belgilansin:

ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalaridan foydalangan holda yaratilgan tovarlarni (bajarilgan ishlarni, ko‘rsatilgan xizmatlarni) realizatsiya qilish yoki ushbu natijalardan o‘z ehtiyojlarini uchun foydalanish;

tijorat tashkilotlarini tashkil etish, bunda ularning ta’sischilaridan biri ustav fondiga hissa sifatida intellektual mulk ob’ekti yoki tayyor texnologiyani kiritgan muassasa (yoki ixtisoslashtirilgan affillangan tashkilot) hisoblanadi;

intellektual mulk ob’ektlariga bo‘lgan mulk huquqlarini uchinchi shaxslarga o‘tkazish va mazkur ob’ektlardan foydalanish huquqini litsenziya shartnomalarini tuzish orqali, shu jumladan, ularni keyinchalik ushbu huquqlar oluvchisi tomonidan tijoratlashtirish sharti bilan berish.

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining 2019 yil va undan

keyingi yillarga mo‘ljallangan parametrlarini shakllantirishda «Ilm-fan» moddasi bo‘yicha ajratilayotgan mablag‘lar doirasida quyidagilarni amalga oshirish uchun mablag‘larning kamida 20 foizi yo‘naltirilishini nazarda tutsin:

davlat-xususiy sheriklik loyihalarini, shu jumladan, davlat-xususiy ilmiy klasterlarini yaratishga, ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarni respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va mintaqalari ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan loyihalarini moliyalashtirish;

ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishga, shu jumladan, budget mablag‘lari oluvchilar faoliyatini tegishli maslahatchilar tomonidan ekspertizadan o‘tkazish, qo‘llab-quvvatlash, xalqaro standartlarga muvofiq biznes-rejalarni tayyorlashga grantlar ajratish.

4. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Fanlar akademiyasining 2018 yil 1 oktabrdan boshlab quyidagilarga qo‘srimcha bir martalik mukofotlar joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin:

patentlangan intellektual mulk ob’ektlari mualliflariga muassasaning budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan eng kam ish haqining o‘n baravari miqdorida;

mualliflar hamda ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini ishlab chiqish va tijoratlashtirishda ishtirok etgan ilmiy jamoaga ularni tijoratlashtirishdan muassasa hisobiga kelib tushayotgan mablag‘larning tegishli ravishda 40 va 30 foizi miqdorida.

5. Belgilab qo‘yilsinki:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar bo‘yicha davlat ilmiy-texnik dasturlarini bajarish doirasida muassasalar tomonidan yaratilgan ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalari, davlat ilmiy-texnik loyihalar yakunlanganidan va (yoki) ular belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilganidan keyin tijoratlashtirilishi lozim, fundamental tadqiqotlar natijalari, shuningdek, gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasidagi loyihalar bundan mustasno;

muassasalarning ilmiy kengashlari ishlab chiqarish siri (nou-xau) yoki tijorat siri rejimida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarining intellektual (nomoddiy) natijasini qo‘riqlash to‘g‘risida qaror qabul qilish huquqiga ega.

•Bugungi kunda xar bir oliy ta’lim muassasasida tashkil etilgan Tijoratlashtirish bo‘linmasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- tizimli ravishda bozorni tahlil qilish va innovatsion mahsulotlarga (ishlar, xizmatlar) bo‘lgan talab, innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan qoplash muddatini baholash, rentabellik va risklarni o‘rganish;
- yuqori tijorat salohiyatiga ega va realizatsiya qilish uchun tayyor bo‘lgan istiqbolli loyihalarni tanlab olish;
- innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun investorlar, hamkorlar va boshqa manfaatdor shaxslarni jalg qilish
- yangi texnologiyalar va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqishni joriy qilish maqsadida sanoat korxonalari bilan hamkorlik qilish.

Tijoratlashtirish bo‘linmasi quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- belgilangan tartibda institutning professor-o‘qituvchilari, o‘quv-yordamchi va ishlab chiqarish xodimlari, doktorant va talabalarni hamda oliy o‘quv yurtlari tomonidan buyurtmachilarga budjet va budgetdan tashqari manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan xizmatharni ko‘rsatuvchi ilmiy tadqiqot ishlarini bajaruvchi tashkilotlarning mutaxassislarini jalg qilish;
- institutning intellektual mulk ob’ektlarini huquqiy jihatdan qo‘riqlash ishlarini bajarish, shu jumladan xorij va O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulklarni tayyorlash, rasmiylashtirish va ro‘yxatdan o‘tkazishga ariza berish ishlarini amalga oshirish;
- intellektual mulk mualliflari bilan amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan shartnomalarni tayyorlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;
- boshqa bo‘linmalar bilan birgalikda institutning intellektual mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqni berishni o‘rganadi, institutning intellektual mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqini berishga oid rasmiylashtirish ishlarini amalga oshiradi;
- intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish samaradorligi va monitoringi, ilmiy-tadqiqot natijalari va oliy o‘quv yurtlari ishlanmalari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish va saqlash ishlarini amalga oshiradi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovatsion loyihalar natijalarining ilmiy-texnik, ilmiy-uslubiy va innovatsion salohiyatini baholash, tahlil qilish va ekspertizadan o‘tkazishda o‘ta muhim va raqobatbardosh ishlanmalarni aniqlashni tashkil etadi;
- intellektual mulkni boshqarish, qayd qilish, taqsimlash va innovatsion jarayonlarning barcha bosqichlarida ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining huquqini berish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishni amalga oshiradi;
- institut ilmiy jamoasini raqobatbardosh ilmiy-texnikaviy mahsulot ishlab chiqarishi va uning harakati, shu jumladan intellektual faoliyat natijalarini amaliyotga joriy etish maqsadida xo‘jalik ob’ektlarini ta’sis etish orqali qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi;

- texnologiyalar transferi, innovatsion loyihalarning biznes rejalarini tayyorlash, raqobatbardosh ustuvor jihatlar va riskni baholash, ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining huquqiy himoyasini ta'minlash, salohiyatli investorlarni izlash bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatadi;
- institut tomonidan tuziladigan ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik, pudrat ishlari, hamkorlik faoliyati, xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik va intellektual mulk masalalariga oid boshqa shartnomalarni tayyorlaydi hamda shartnomalar bajarilishini nazorat qiladi;
- institutning intellektual mulk ob'ektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanish holatlarini aniqlaydi va rahbariyatga qonunbuzarlik holatlarini bartaraf etish va keltirilgan zararni qoplash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish taklifini beradi, shuningdek ushbu qonunbuzarlik holatlarini bartaraf etishga oid zarur choralarini ko'radi;
- institutning intellektual mulk ob'ektlari huquqini himoya qilish hamda mualliflarning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilishda ishtirok etadi;
- institutning ishchilariga - intellektual mulk ob'ektlari egalariga ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini amalga oshirishda, shu jumladan amaldagi qonunchilikka muvofiq, huquq va imtiyozlar bo'yicha maslahat, huquqiy va axborot yordamini beradi;
- institutning xodimlari o'rtasida intellektual mulk sohasida o'qitishni tashkil etadi;
- institut axborot resurs bazasining normativ, uslubiy va patent ma'lumoti ishlarining o'z sohasining ixtisoslashuviga ko'ra faoliyatini muvofiqlashtirib turadi;
- institutning ixtirochilik va patent-litsenziya faoliyati yuzasidan innovatsion tadbirkorlik va texnologiyalar transferini qo'llab-quvvatlash bo'yicha budjet loyihasiga kiritish taklifini tayyorlaydi;
- institutning intellektual mulk ob'ektlarini yaratish, qo'riqlash va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan reglament masalalariga oid hujjatlarni ishlab chiqadi.

3.Ta'lismuassasasi investitsiyalarni jalb etishning asosiy yo'nalishlari.

Investitsiya (sarmoya) degani – daromad yoki foyda olish maqsadida mablag'ni muayyan muddatga tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari (ob'ektlari)ga yo'naltirishni tavsiflaydi.

Ta'lismuassasasi investitsiyadir. Jamiat va davlat bunday investitsiyalardan manfaatdor, chunki ta'lismuassasasi oshirish idtisodiy o'sishni ta'minlaydi, mehnat unumdarligini oshiradi, ijtimoiy muammolarni yumshatadi.

Shuning uchun ham ta’limga yo‘naltirilgan moliyaviy resurslarning salmog‘i ustuvor hisoblanadi.

OTMlarining budjetdan tashqari faoliyati asosiy turlarini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tasniflash mumkin:

1. Ta’lim xizmatlari sohasi:

- to‘lov-kontrakt asosida ta’lim berish;
 - oliy ta’lim muassasalariga kirishga tayyorlash;
 - korxonalar bilan shartnomalar asosida mutaxassislarni taqsimlash;
 - kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash (Malaka oshirish fakultetlari (MOF) va institutlari (MOI));
 - ikkinchi oliy ma’lumot berish;
 - turli biznes-maktablar tashkil etish;
 - chet tillarni jadal kurslarini tashkil etish;
- maxsus sertifikatlar olish uchun kurslarda qo‘srimcha ta’lim (ko‘rish (dasturchilar, buxgalterlar, auditorlar va boshqalar);
jismoniy va yuridik shaxslar uchun pullik maslahatlar tashkil etish;
- qisqa muddatli pullik kurslar va seminarlar tashkil etish. Konsalting xizmatlar, yuridik xizmatlar.

2. Ilmiy-ishlab chiqarish faoliyati:

- xo‘jalik shartnomasi asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib **borish**;
- konsalting va ma’lumot-axborot faoliyati;
- xududlarda yuqori texnologiyalarni tatbiq, etish bilan bog‘liq **faoliyat**;
- ilmiy maqsadlardagi uskunalar va jixozlar lizingini tashkil etish;
- kichik biznes sub’ektlari va xususiy tadbirkorlarga biznes rejalar tuzish, innovatsion g‘oyalarni taklif etish;
- xukumat idoralari, xududiy boshqaruvi organlari yoki tijorat tuzilmalari buyurtmalari asosida fanlararo kompleks tadqiqotlar olib borish;
- kichik biznesga ilmiy-texnikaviy ko‘maklashish;
- ilmiy-texnikaviy parklar va yangiliklar inkubatorlarini tashkil etish;
- tijorat va xo‘jalik hisobidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan yakka tartibdagi shartnomalar asosida ilmiy ishlarni bajarish;
- OTMlari olimlarining kashfiyotlari va ixtiolariga patent na litsenziyalar sotish;
- tijorat firmalari va korxonalari bilan birgalikda ilmiy- tadqiqot markazlari hamda laboratoriyalari tashkil etish;
- xorijiy investorlar ishtirokida qo‘srimcha korxonalar tuzish; to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish;
- pullik ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar tashkil **etish**;

- OTMlarining ta’lim va ilmiy-tadqikot xizmatlari reklamasini tashkil etish;
- auditorlik faoliyatini tashkil etish;
- O‘zbekistan Respublikasi qonunchiligidagi taqiqlanmagan boshqa ilmiy-ishtirok chiqarish tusidagi innovatsion faoliyat turlari bilan shug‘ullanish.

3. Tashqi iqtisodiy faoliyat:

- xorijiy talabalar, aspirantlar, magistrantlar, stajorlarga ta’lim berishni tashkil etish;
- xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan birgalikda qo‘shma fakultetlar tashkil qilish;
- xorijiy hamkorlar bilan qo‘shma korxonalar tashkil qilish;
- xorijiy jamg‘armalar bilan oliy ta’limni qo‘llab-quvvatlash dasturlarida ishtirok etish;
- O‘zbekistan talabalarini xorijdagi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga yuborish;
- turli xil xorijiy investiyalarni jalb etish.

4. Tijorat faoliyati:

- darsliklar, o‘quv-uslubiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar nashr etish;
- davriy nashrlar chiqarish;
- reklama faoliyatini tashkil etish;
- bo‘sh xonalarni ijaraga berish;
- xonalarning uzoq muddatli ijarasi (lizingi);
- ta’til vaqtida bo‘sh qolgan yotoqxonalarni qisqa muddatli ijaraga berish;
- konferensiyalar va pullik mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun konfereniya zallarni, auditoriyalarni ijaraga berish;
- o‘qishdan va ishdan tashqari vaqtida tantanali marosimlar va boshqa tadbirdarlari o‘tkazish uchun oshxonalarini ijaraga berish;
- talabalar, xodimlar va aholiga turli pullik xizmatlar ko‘rsatish;
- umumiy ovqatlanish shaxobchalarini tashkil etish;
- OTMga tegishli sog‘lomlashtirish muassasalarining pullik asosdagi davolash va sog‘lomlashtirish xizmatlari;
- sport komplekslari yoki stadionlar xizmatlari;
- maishiy xizmatlar (sartaroshxonalar, kimyoviy tozalash, kir yuvish, poyabzal ta’mirlash va d.k.);
- pullik bolalar bog‘chalari yoki bolalar maydonchalari tashkil etish;
- tijorat tashkilotlariga oliy ta’lim muassasasining ramzlari va rekvizitlaridan foydalanan huquqini berish.

5. Xomiylit:

- turli mulk shaklidagi korxona, tashkilot va firmalardan homiylik

mablag‘larini jalb etish;

- xizmat ko‘rsatish va ishlar bajarish (kapital ta’mirlash, o‘quv binolarini bezash, hududlarni obodonlashtirish va x.k.);
- uskunalarini bepul berish (audio-video va kompyuter texnikasi, o‘quv-laboratoriya jihozlari, yozuv qog‘ozlari va x.k.);
- kutubxona fondini to‘ldirish (darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, kataloglar, badiiy adabiyot va x.k.);
- xorijiy investitsiyalarni jalb etish (kichik bosmaxonalar, avtotransport, o‘quv-laboratoriya uskunalarini, o‘quv adabiyotlari).

6. Oliy ta’lim muassasalari Vasiylik kengashining Rivojlantirish jamg‘armasi:

Vasiylik kengashi nizom majburiyatlariga muvofiq OTMni rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirishi mumkin. OTMning Vasiylik kengashi jamg‘armasi quyidagilar hisobiga tashkil topadi;

- davlat korxonalarining ko‘ngilli badallari;
- turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarning ixtiyoriy badallari;
- fuqorolarning ko‘ngilli xayriyalari;
- xorijiy investorlarning ko‘ngilli xomiylik badallari;
- Vasiylik kengashining xorijiy firmalar bilan tuzgan qo‘shma korxonalar faoliyatidan keladigan daromadlar;
- tijorat banklari yoki boshqa moliya institutlari tomonidan berilgan kreditlar;

Таълим муассасаси инвестицияларни жалб этишнинг асосий йўналишлари

Таълим инсон омилига инвестициядир. Жамият ва давлат бундай инвестициялардан манфаатдор, чунки таълим даражасини ошириш иқтисодий ўсишни таъминлайди, меҳнат унумдорлигини оширади, ижтимоий муаммоларни юмшатади. Шунинг учун ҳам таълимга йўналтирилган молиявий ресурсларнинг салмоғи устувор ҳисобланади.

Таълим муассасаси инвестицияларни жалб етишнинг асосий йўналишлари:



4. Ta’lim muassasalarini moliyaviy mustaqilligi sharoitida o‘quv, uslubiy, ilmiy, ma’naviy, ma’rifiy va tashkiliy faoliyatini moliyaviy ta’minotini tashkil etish.

Ta’lim muassasalarini budgetdan moliyalashtirish mexanizmi davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatiga bog‘liq tarzda budgetlarni tuzish va ijro etishning yagona qoidalaridai foydalanishga asoslangan.

Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy resurslari ikki asosiy manba: **davlat budgeti** va **budgetdan tashqari mablag‘lar** (1-chizmaga karang) hisobidan shakllanadi.

Oliy ta’lim muassasasining budgetdan to‘lanadigan xarajatlarini hisob-kitob qilishning asosida quyidagi ishlab chikarish (operativ-tarmoq, ko‘rsatkichlari) yotadi:

- talabalar qabul granti miqdori;
- talabalar kontingenta (soni);
- ta’lim muassasasi moddiy-texnika bazasining hajmi.
- Professor-o‘qituvchi lavozimlari sonini va shu asosda tegishli ish xaqi fondini aniqlash uchun bir o‘qituvchiga belgilangan talabalar soniga ko‘ra belgilangan me’yor qo‘llaniladi.

Budget mablag‘laridan foydalanish ustidan *nazorat* qilish xarajatlarni ularning guruhlari va moddalari bo‘yicha ajratilishida amalga oshiriladi.

O‘zbekistan Respublikasida talim tizimini moliyalashtirish.

1-chizma. OTMlarining budgetdan tashqari faoliyati assosiy turlarini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tasniflash mumyakin:

- ➡ Ta’lim xizmatlari sohasi
- ➡ Ilmiy-ishlab chiqarish faoliyati
- ➡ Tashqi iqtisodiy faoliyat:
- ➡ Tijorat faoliyati
- ➡ Xomiylik
- ➡ Oliy ta’lim muassasalari Vasiylik kengashining Rivojlantirish jamg‘armasi

Таълим муассасаларини молиявий мустақиллиги шароитида ўқув, услугий, илмий, маънавий, маърифий ва ташкилий фаолиятини молиявий таъминотини ташкил этиш

Таълим муассасаларини бюджетдан молиялаштириш механизми давлатнинг иқтисодий ва молиявий сиёсатига боғлиқ тарзда бюджетларни тузиш ва ижро этишининг ягона қондларида фойдаланишга асосланган.

Олий таълим муассасасининг бюджетдан тўланадиган харажатларни хисоб-китоб қилишининг асосида қўйидаги ишлаб чиқариш (оперативтармоқ, кўрсаткичлари) ётади:

- талабалар қабул гранти миқдори;
- талабалар контингенти (сони);
- таълим муассасаси моддий-техника базасининг хажми.
- Профессор-ўқитувчи лавозимлари сонини ва шу асосда тегишли иш хаки фондини аниқлаш учун бир ўқитувчига белгиланган талабалар сонига кўра белгиланган меъёр қўлланилади.

Бюджет маблагларидан фойдаланиш устидан назорат қилиш харажатларни уларнинг гурӯҳлари ва моддалари бўйича ажратилишида амалга оширилади.

Таълим хизматлари соҳаси:

тулов-контракт асосида таълим бериш;
олий таълим муассасаларига киришга тайёрлаш;
корхоналар билан шартномалар асосида мутахассисларни тақсимлаш;
кадрлар малакасини ошириш ва кайта тайёрлаш (Малака ошириш факультетлари (МОФ) ва институтлари (МОИ));
иккинчи олий маълумот бериш;
турли бизнес-мактаблар ташкил эташ;

Илмий-ишлаб чиқариш фаолияти:

хужалик шартномаси асосида илмий-тадқиқ;от ишларини олиб бориш;
консалтинг ва маълумот-ахборот фаолияти;
худудларда юкори технологияларни татбиқ, этиш билан боғлиқ фаолият;
илмий мақсадлардаги ускуналар ва жихозлар лизингини ташкил этиш;
кичик бизнес субъектлари ва хусусий тадбиркорларга бизнес режалар тузиш, инновацион ғояларни таклиф этиш;
хукумат идоралари, ХУДУДИЙ бошкарув органдари ёки тижорат тузилмалари буюртмалари асосида фанлараро комплекс тадқиқотлар олиб бориш;
кичик бизнесга илмий-техникавий кумаклашиш;

Хомийлик:

турли мулк шаклидаги корхона, ташкилот ва фирмалардан хомийлик маблагларини жалб этиш;
хизмат курсатиш ва ишлар бажариш (капитал таъмирлаш, ўдув биноларини безаш, худудларни ободонлаштириш ва д.к.);
ускуналарни бепул бериш (аудио-видео ва компьютер техникаси, ўқув-лаборатория жихозлари, ёзув қоғозлари ва д.к.);
кутубхона фондини тўлдириш (дарсликлар, ўқув қўлланмалари, каталоглар, бадиий адабиёт ва д.к.);
хорижий инвестицияларни жалб этиш (кичик босмахоналар, автотранспорт, ўқув-лаборатория ускуналари, ўқув адабиётлари).

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1- MAVZU: MOLIYAVIY O‘Z-O‘ZINI TA’MINLASH JARAYONIDA TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI (4 SOAT)

Amaliy mashg‘ulotda moliyaviy o‘z-o‘zini ta’minlash jarayonining asosiy komponentlari asosida OTM moliyaviy mustaqilligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyati, oliv ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘z-o‘zini moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash amaliyoti muhokama qilinadi.

Keys №1.

Moliyaviy o‘zini-o‘zi ta’minlash jarayonida oliv ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishning amaliyoti. O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy o‘zini-o‘zi ta’minlashga o‘tgan 10 ta OTMlari faoliyatini amaliy tahlil etish va tegishli xulosalar shakllantirish. Kelgusida respublika boshqa OTMlariga ham moliyaviy mustaqillik berish masalalarini muhokama etish va uning amaliy tahlili.

Oliv ta’limni moliyalashtirish, jumladan, moliyaviy o‘zini-o‘zi ta’minlash va uning asosiy komponentlari asosida moliyaviy mustaqilligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliv va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2019 yil 11 iyuldagagi PQ-4391-son **qaroriga** muvofiq o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tayotgan oliv ta’lim muassasalariga quyidagi xuquqlar berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinishi:

a) yuqori malakali mutaxassislarini jalb etish, ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini oshirish maqsadida xodimlarga ustamalar va moddiy rag‘batlantirishning boshqa turlari miqdorlarini mustaqil belgilash;

b) iqtidorli, shuningdek aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlaridan bo‘lgan talabalarni moddiy rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash;

v) saqlash xarajatlari, vazifa va majburiyatlarni bajarish, o‘qitishning

innovatsion shakl va uslublarini joriy etish hamda xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, dasturiy ta’mnotlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, o‘quv va ilmiy laboratoriylar hamda sarflanadigan laboratoriya materiallarini (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa ob’ektlar), shu jumladan kitoblar, jurnallar, o‘quv adabiyotlari xarid qilish va chop ettirish uchun mablag‘larni mustaqil sarflash;

g) oliy ta’lim muassasasi infratuzilmasiga servis xizmatlari ko‘rsatishning alohida turlari, jumladan bino va inshootlar, talabalar turar joylari, sport ob’ektlaridan foydalanish, ularni tozalash, ta’mirlash, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya tarmoqlarini saqlash va yuridik xizmatlar ko‘rsatishni autsorsing shartlarida tashkil etish;

d) bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda:

oliy ta’lim muassasasining ilmiy-pedagogik salohiyati, uning moddiy-texnik bazasi imkoniyatlarini inobatga olib, talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarini belgilash, yangi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish;

oliy ta’lim muassasasini o‘zini o‘zi to‘liq moliyaviy ta’minlash miqdoridan kelib chiqib, to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini belgilash.

Bunda, 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab, to‘lov-kontrakt asosida qabul qilingan talabalar uchun to‘lov-kontrakt qiymati miqdorlari bir talabani bir yillik o‘qitish xarajatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalarida davlat buyurtmasi asosida ta’lim olayotgan talabalarni o‘qitish bilan bog‘liq xarajatlar uchun budget mablag‘larini ajratish bakalavriat ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi), turi, bosqichi va shaklidan kelib chiqib davlat granti asosidagi o‘rin uchun sarflanadigan xarajatlarning normativ miqdorlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, budgetdan ajratiladigan mablag‘larning yillik cheklangan summasi davlat granti asosida ta’lim olayotgan kontingent soni va har bir davlat granti asosidagi o‘rin uchun sarflanadigan xarajatlarning normativ miqdorlari asosida hisoblanadi;

o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalarida davlat buyurtmasi asosida ta’lim olayotgan talabalar uchun budget mablag‘lari bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik va idora hamda oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida imzolanadigan davlat buyurtmasini bajarishni moliyalashtirish bitimi asosida xarajatlar smetasida budget tizimi budgetlari iqtisodiy xarajatlar tasnifining bir satrida rejalashtirilgan holda ajratiladi (maqsadli mablag‘lar, shu jumladan stipendiya to‘lovlari, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim xarajatlari, kapital

qo‘yilmalar xarajatlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida ajratiladigan mablag‘lar bundan mustasno);

o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalarida davlat buyurtmasi asosida ta’lim olayotgan talabalar uchun ajratilgan budget mablag‘lari (maqsadli mablag‘lar bundan mustasno) oliy ta’lim muassasasining budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkaziladi va hisobot davri oxirida mablag‘larning qoldig‘i oliy ta’lim muassasasi hisobida qoldiriladi;

o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalarining budget va budgetdan tashqari mablag‘laridan oqilona va samarali foydalanish, jumladan xodimlar mehnatiga haq to‘lash va stipendiya to‘lovlarini o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirish uchun javobgarlik mazkur muassasalar rektor (direktor)lari zimmasiga yuklanadi.

OTM молиявий ўзини-ўзи таъминлаш

- Бозор иқтисодиёти асосий шарти
- OTM молиявий мустақиллигига эришади
- Профессор-ўқитувчilarни моддий рағбатлантириш механизми мустақил белгиланади
- Хорижий профессор-ўқитувчilarни жалб этиш ошади, хорижий фуқаро талabalarni жалб қилади
- Талabalarni қабул қилиш қилиш квотаси мустақил шаклланади
- Иқтидорли ва ижтимоий ҳимояга мұхтоҗ талabalarni рағбатлантириш мустақил амалга оширилади

- Ўқитиш инновацион шакллари ва методлари жорий этиш, ОТМ моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, ўқув лабораториялар ташкил этиш, лаборатория жиҳозларини харид қилишда мустақил
- Профессор-ўқитувчилар малакасини ошириш, қайта тайёрлаш, хорижий давлатларда ўқитиш имкони ошади
- Адабиётлар, ўқув қўлланма ва дарсликларни нашр этиш мустақил амалга оширилади
- Айрим хизматларни аутсорсингга бериш имкони пайдо бўлади
- Бакалавр, магистратура ва докторантурда янги йўналишлар қабули ва контракт суммаларини ҳамда тўлаш муддатларини мустақил белгилайди
- Ректор университет структурасини мустақил белгилайди
- Университетларни акциялаштириш имкони пайдо бўлади

2020 йил 1 январдан бошлаб, тажриба-синов тарикасида ўзини-ўзи молиялаштириш тизимига ўтказилган олий таълим муассасалари

РЎЙХАТИ

1. Самарканд давлат чет тиллар институти
2. Самарканд иқтисодиёт ва сервис институти
3. Тошкент давлат юридик университети
4. Тошкент давлат иқтисодиёт университети
5. Тошкент молия институти
6. Тошкент давлат шарқшунослик институти
7. Тошкент фармацевтика институти
8. Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети
9. Урганч давлат университети
10. Тошкент темир йўл мухандислари институти
(Тошкент давлат транспорт университети)

1-sonli keys uchun topshiriq.

1. An'anaviy va Moliyaviy o'z-o'zini ta'minlash jarayonlarining qiyosiy jadvalini tuzing.
2. OTMning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati bo'yicha *SWOT tahlilni o'tkazing*.

2-sonli keys uchun topshiriq.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019 yil 11 iyuldaggi PQ-4391-sonli qarorini o'rganing.
2. Ushbu hujjat uchun *klaster* yarating.

2-MAVZU: MOLIYAVIY O'ZINI-O'ZI TA'MINLASH ORQALI OLIV TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH (4 SOAT)

Amaliy mashg'ulotda oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari eksporti va qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishga doir faoliyatini rivojlantirish, moliyaviy mustaqillik berilayotgan OTMda kuzatuv kengashlarini tashkil etishning ahamiyati muhokama qilinadi.

Keys №1.

Moliyaviy o'zini-o'zi ta'minlash jarayonida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishda mavjud muammolar va ularning talqini.

Moliyaviy o'zini-o'zi ta'minlash jarayonida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishda mavjud muammolarni hal etish yo'llari.

Moliyaviy o'zini-o'zi ta'minlash jarayonida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish.

Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish, moliyalashtirishning samarali va shaffof mexanizmlarini joriy etish;

iqtisodiyot tarmoqlarining kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini inobatga olgan holda, shuningdek istiqbolda oliy ta’lim muassasalarining reytingi va o‘z xarajatlarini qoplash darajasidan kelib chiqib bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) bo‘yicha to‘lov-kontrakt miqdorlarini mustaqil belgilash tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish;

oliy ta’lim muassasalarining ta’lim xizmatlari eksporti va qo‘srimcha xizmatlar ko‘rsatishga doir faoliyatini rivojlantirish;

qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, ushbu jarayonda innovatsion texnologiyalarga asoslangan, resurstejamkor va tez barpo etiladigan konstruksiya va materiallardan foydalanish bo‘yicha ilg‘or texnologiyalar va muhandislik yechimlarini qo‘llash;

oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy dasturiy mahsulotlar bilan ta’minlash, o‘quv va ilmiy jarayonlarni o‘quv va laboratoriya uskunalarini, shuningdek laboratoriya materiallari (reakтивлар, кимыовија идис, бутловчи, биологик materiallar va boshqa ob’ektlar) bilan muntazam ravishda zarur miqdorlarda ta’minlab borishning samarali mexanizmlarini yaratish;

talabalar turar joylari, kutubxona, o‘quv ustaxonalari, laboratoriyalar, sport sog‘lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilma ob’ektlariga nisbatan o‘sib borayotgan ehtiyojni o‘z vaqtida ta’minlash va zamon talablari asosida ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

imkoniyati cheklangan talabalarga oliy ta’lim muassasalari va talabalar turar joylari binolarida qo‘srimcha sharoitlar yaratish, ular uchun ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash choralarini ko‘rish;

oliy ta’lim muassasalarida xorijiy fuqarolarning istiqomat qilishi va ta’lim olishi bo‘yicha qulay shart-sharoitlar yaratish;

innovatsion kutubxonalarini tashkil etish, ulardagi kitob fondini yangi avlod o‘quv adabiyotlari bilan muntazam boyitish;

oliy ta’lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet bilan uzlusiz ta’minlash, talabalarning mustaqil ta’lim olishi uchun infratuzilma imkoniyatlarini kengaytirish;

talabalar, o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning elektron ta’lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma’lumotlar bazalaridan bepul foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlaridan bo‘lgan talabalarni moddiy rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash;

oliy ta’lim muassasalarida homiylik va ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishdan tushgan, maqsadli kapital va boshqa mablag‘lar hisobiga moliyalashtiriladigan endaument jamg‘armalarini (endowment fund) tashkil etish.

Oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

a) kadrlar tayyorlash sifati va ko‘lамини inobatga oлган holda oliy ta’lim muassasalarini quyidagi toifalarga ajratish va ularni rivojlantirish strategiyalarini belgilash:

birinchi toifa — flagman universitetlar (O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universiteti);

ikkinchi toifa — ilm-fan va innovatsion markaz funksiyasini bajaruvchi hududiy oliy ta’lim muassasalari;

uchinchi toifa — sohalar uchun ta’lim va ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha tayanch muassasalar rolini bajaruvchi tarmoq oliy ta’lim muassasalari;

b) institut maqomidagi oliy ta’lim muassasalari faoliyati ko‘lамини kengaytirish va institutsional salohiyatini kuchaytirish orqali ularni universitetga aylantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

v) oliy ta’lim muassasalarini ularning quvvati, ilmiy salohiyati va boshqa asosiy ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib bosqichma-bosqich yiriklashtirib borish;

g) tajriba tariqasida davlat ulushining 51 foizdan kam bo‘lmagan qismini saqlab qolgan holda ayrim davlat oliy ta’lim muassasalarini (oliy harbiy ta’lim muassasalari bundan mustasno) davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, ularda korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish;

d) oliy ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha hujjat loyihalarini ishlab chiqish va muhokama etishda Respublika oliy ta’lim kengashi nufuzi va faolligini oshirish, mas’uliyatini kuchaytirish, oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik nazoratining zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

ye) oliy ta’lim tizimida boshqaruv jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish, davlat interaktiv xizmatlari ko‘lамини kengaytirish;

j) oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirishda strategik rejorashtirish tamoyillarini joriy etish, bunda vasiylik kengashlari mas’uliyati va rolini oshirish;

z) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi funksiyalarini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, bunda ta’lim sifatini baholashning yangi mexanizmlarini joriy etish, kadrlar buyurtmachilari va talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan milliy so‘rov natijalarini chuqur tadqiq qilish orqali muammolarni bartaraf etish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’sirchan instrumentlar yordamida nazorat qilib borish, bitiruvchilar sifati va ularning ixtisosligi bo‘yicha ishga joylashish masalalariga e’tibor qaratish;

i) ta’lim sifatini nazorat qilish va oliy ta’lim muassasalari reytingini yuritishning nodavlat tizimini yaratish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar belgilash;

y) oliy ta’lim muassasalarida ishga qabul qilish va yuqori lavozimlarga tayinlashda oliy ta’lim tizimi rivoji uchun o‘zining munosib hissasini qo‘suvchi kadrlarni tanlash, ularning faoliyati, professional xususiyatlari, soha oldidagi alohida xizmatlarini adolatli va xolisona baholashni nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyillarini qo‘llash, rahbarlik lavozimlariga tayinlashda gender tengligi tamoyillariga qat’iy rioya qilish;

k) oliy ta’lim muassasalari rahbarlik lavozimlariga zaxira kadrlarni shakllantirish, maqsadli o‘qitish va tayyorlash samaradorligini oshirish;

l) oliy ta’lim muassasalari rahbar xodimlarini rotatsiya qilish mexanizmini joriy qilish.

1-sonli keys uchun topshiriq.

1. O‘zingiz faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasasining ta’lim xizmatlari eksporti va qo‘srimcha xizmatlar ko‘rsatishga doir faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqing.

2. Moliyaviy mustaqillik berilayotgan OTMdakuzatuv kengashlarini tashkil etishning ahamiyati bo‘yicha SWOT tahlilni amalga oshiring.

3. Moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalarida kuzatuv kengashlarining asosiy vakolatlarini aniqlang.

V. GLOSSARY

V. GLOSSARY

№	Termin	Izoh	Description
1.	autsorsing outsourcing	-outer-source-using so‘zidan olingan bo‘lib, tashqi resurs (manba)lardan foydalanish, degan ma’noni anglatadi) biron-bir tashkilotning ichki xizmat ko‘rsatish yoki biznes jarayonlarining boshqa tashkilot, yoki kompaniyalarga o‘tishidir.	- is the business practice of hiring a party outside a company to perform services and create goods that traditionally were performed <u>in-house</u> by the company's own employees and staff.
2.	Budget budget	– bu davlat va mahalliy o‘z o‘zini boshqarish vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ta’minlash uchun mo‘ljallangan pul mablag‘lari jamg‘armalarini to‘plash va sarflash shaklidir.	- is an estimation of <u>revenue</u> and <u>expenses</u> over a specified future period of time and is usually compiled and re-evaluated on a periodic basis. Budgets can be made for a person, a family, a group of people, a business, a government, a country, a multinational organization or just about anything else that makes and spends money.
3.	Investitsiya investment	– bu iqtisodiy va boshqa faoliyat ob’ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlaridir. – Investitsiya faoliyati shug‘ullanuvchi sub’ektlariga qarab milliy va xorijiy investitsiyalarga bo‘linadi.	- Investment activity is divided into national and foreign investments depending on the subjects involved.
4.	Grant Grant	– maqsadli vositalar, korxonalar, tashkilotlar va shaxslarga pul va natura ko‘rinishida hamda tajriba-konstrukturlik ishlari, o‘qish uchun beriladigan stipendiya.	- Scholarships for targeted funds, businesses, organizations and individuals in the form of money and in-kind and experimental design work.
5.	Ijtimoiy ta’minot Social security	— keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo‘lgan va boquvchisini yo‘qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va <u>ijtimoiy yordam</u> ko‘rsatish bo‘yicha <u>davlat</u> tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi. Ijtimoiy himoyaning muhim tarmog‘i.	- The state system of social and economic measures to provide material, medical and social assistance to the elderly, the disabled and the lost breadwinner. An Important Network of Social Security.

6.	Venchur fondlari Venchur Funds	<ul style="list-style-type: none"> – innovatsion korxonalar va loyixalar(startaplar) bilan ishlashga yunaltirilgan riskli investitsiya fondi. – Venchur kapital fondlari qimmatbaho qog‘ozlarga yoki korxonaning aksiyalariga sarmoya kiritadi. 	<ul style="list-style-type: none"> - Risky investment fund aimed at working with innovative enterprises and projects (startups). - Venchur Capital Funds invest in stocks or shares of the enterprise.
7.	Patent patent	<ul style="list-style-type: none"> – texnik yechim yoki ixtironing davlat tomonidan e’tirof etilgan va ixtirochining o‘z ixtirosiga olgan mutloq huquqini tasdiqlovchi hujjat. – patentni odatda davlat beradi. 	<ul style="list-style-type: none"> - A state-recognized technical solution or a document confirming the exclusive rights of the inventor on his invention. - A patent is generally granted by the State.
8.	Nostrifikatsiya Nostrification	<ul style="list-style-type: none"> – (nem. nostrifikation, lotincha noster — bizniki, lotincha facere — qilmoq) deganda xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ushbu hujjatlarning qonuniy kuchga ega ekaniga rozilik berish tushuniladi. 	<ul style="list-style-type: none"> - recognition of education documents abroad, agreeing that these documents are valid throughout the territory of the Republic of Uzbekistan.
9.	Infratuzilma Infrastructure	<ul style="list-style-type: none"> – tovar muomalasi, shuningdek, inson faoliyati uchun zarur bo‘lgan me’yoriy sharoitni ta’minlashga xizmat qiluvchi turli-tuman yordamchi xizmat ko‘rsatuvchi sohalar majmuidir. 	<ul style="list-style-type: none"> - A wide range of auxiliary services, which provide the necessary conditions for goods circulation, as well as human activities.
10.	Monitoring Monitoring	<ul style="list-style-type: none"> – atrof-muhit va jamiyatda sodir bo‘layotgan hodisalar va jarayonlarni doimiy ravishda kuzatib borish tizimi, uning natijalari odamlar va iqtisodiy ob’ektlarning xavfsizligini ta’minlash uchun boshqaruv qarorlarini asoslashga xizmat qiladi.. 	<ul style="list-style-type: none"> - A system of continuous monitoring of events and processes in the environment and society, the results of which serve as the basis for management decisions to ensure the safety of people and economic facilities.
11.	Identifikatsiya Identification	<ul style="list-style-type: none"> – foydalanish sub’ektlari va ob’ektlariga identifikator berish va/yoki taqdim etilgan identifikatorni berilganlari ro‘yhati bilan taqqoslash. 	<ul style="list-style-type: none"> -assignment to subjects and objects of access of the identifier and/or comparison of the shown identifier with the list of the appropriated identifiers.

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyul “Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5763-sonli Farmoni
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyul “Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4391-sonli Qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabr

«Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida»gi 967-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

16. Oliy ta’limning me’yoriy - huquqiy xujjatlari to‘plami. -T., 2013.
17. Rasprostranenie Bolonskogo protsessa: o deklaratsii k vnedreniyu na praktike. V 3-x chastyax. Chast 2. Tendensii razvitiya Bolonskogo protsessa, yego instrumenty i orыт vnedreniya / R.R. Agishev, I.V. Anisimova, Sh.M. Valitov, D.A. Gopkalo, V.G. Kryukov, A.Ye. Pushkina, L.A. Simonova, A.P. Snegurenko. Pod red. prof. R.R. Agisheva. - Kazan, KGTU im. A.N. Tupoleva, 2008. - 118 s.
18. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.
19. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.

IV. Internet saytlar:

20. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
21. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
22. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
23. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyoNET.
24. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.